

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 3 - avgust

162-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 73-moddasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 7-iyundagi 01-09/16-06/478-son dasturi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 14-iyuldagi CM/12-02/2862-son xulosasiga muvofiq, joriy yilning 8-9-iyul kunlari "B.A. HOLDING" va "FUJIAN QUNFENG INVESTMENT GROUP" kompaniyalari vakillaridan iborat delegatsiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi bilan bog'liq sarflangan xarajatlarni qoplash maqsadida:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodikov) delegatsiya a'zolarining tushlik va kechki ovqati hamda esdalik sovg'alari uchun sarflangan jami **10 233 300,00** (o'n million ikki yuz o'ttiz uch ming uch yuz) so'm mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (D.Joldasov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda, maqsadli yo'naltirilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Utambetov)dan ajratilgan mablag'larning qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda, maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish so'ralsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari A.Oteuliyev zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov